

## COURSERA OMMAVIY ONLAYN OCHIQ KURSLAR ORQALI TALABALARING MUSTAQIL TA'LIM OLISH JARAYONINI TASHKILLASHTIRISH

Abdullaeva Fayoza Naimjonovna,  
Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.023>

Ushbu maqolada MOOC (Massive open online courses) asosiy platformalarining xarakteristikalari, imkoniyatlari va Coursera ommaviy onlayn ochiq kurslar orqali talabalarning mustaqil ta'lif olish jarayonini tashkillashtirish bo'yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lif platformalari, elektron ta'lif, MOOC, mustaqil ta'lif.

## ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ МАССОВЫЙ ОТКРЫТЫЙ ОНЛАЙН КУРСЫ COURSERA

Абдуллаева Фаёза Наимжоновна,  
Преподаватель Академия труда и социальных отношений

В статье разработаны характеристики и возможности основных платформ MOOK (Массовый открытый онлайн курс), а также рекомендации и предложения по организации самостоятельного процесса обучения студентов посредством массовых открытых онлайн курсов Coursera.

**Ключевые слова.** Образовательные платформы, электронное обучение, MOOK, самостоятельное обучение.

## ORGANIZATION OF INDEPENDENT TRAINING PROCESS FOR STUDENTS THROUGH MASSIVE OPEN ONLINE COURSES COURSERA

Abdullayeva Fayoza Naimjonovna,  
Teacher Academy of labour and social relations

The article develops the characteristics and capabilities of the main MOOC platforms, as well as recommendations and proposals for organizing an independent learning process for students through Coursera massive open online courses.

**Keywords.** Educational platforms, e-learning, MOOCs, self-paced learning.

Kirish. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari kun sayin rivojlanib, axborotlashtirish jarayoni tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan hozirgi davrda ta'lif sohasida axborot resurslarini tashkil etish va ta'lilda foydalanishga mamlakatimiz rahbariyati tomonidan alohida e'tibor qaratilib, bunda ta'lif sohasida axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lif tizimiga joriy etish va jahon axborot resurslaridan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan qator vazifalar belgilangan.

Coursera kabi ommaviy onlayn ochiq kurslardan aniq fanlarni o'qitishda foydalanishning asosiy maqsadi – dunyodagi eng rivojlangan xorijiy oliy ta'lif muassasalaridagi aniq fanlarni o'qitishdagi ilg'or pedagogik va metodik ishlamalarini o'rganib chiqib va o'quv jarayoniga qo'llash hisobiga mamlakatimizning oliy ta'limi tizimida aniq fanlarni o'qitish jarayoni sifatini oshirishdan iboratdir. Ommaviy onlayn ochiq kurslar asosida talabaning o'quv faoliyatini tashkil etishning maqsadi zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini samarali qo'llash hisobiga va xorij tajribasidan unumli foydalangan holda, ta'lif sifatini oshirish, shuningdek, ta'lif oluvchilarda ko'proq mustaqil ta'lif olish ko'nikmasini shakllantirgan holda ta'lif dasturlarini o'zlashtirish imkoniyatini yaratishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdag'i «Oliy ta'lifning davlat ta'lif standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 343-sonli qaroriga hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2009 yil 14 avgustdag'i «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish to'g'risida»gi 286-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha Yo'riqnomasi» asosida me'yorlashtirilgan. Talaba mustaqil ishi (TMI) - muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan


o‘qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o‘zlashtirilishiga yo‘naltirilgan tizimli faoliyatdir.

#### Asosiy qism

Respublikamizda boshqa ilg‘or mamlakatlar qatori zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta’limda faol foydalanishga kirishildi. Lekin elektron ta’limni joriy etishda qator qiyinchiliklar mavjud bo‘lib, u quyidagilarda namoyon bo‘ladi[1]:

- pedagogik jamoalarning elektron ta’limni joriy etilishiga yetarli darajada tayyor emasligi;
- elektron ta’lim imkoniyatlari haqida tasavvurlarning ozligi, ularni qo‘llash bo‘yicha metodik ishlanmalarning kamligi;
- elektron ta’limda foydalananiladigan kompyuter texnologiyalari vositalarining qimmatligi va elektron ta’lim bo‘yicha mutaxassislarning yetishmasligi.

Ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC, Massive open online courses) XXI asr boshlari ya’ni 2000 yillarda Internet tarmog‘ida alohida qo‘yilgan ochiq ta’lim kurslarining davomchisi sifatida paydo bo‘ldi[2]. Bu terminni 2010 yilda Shaxzoda Eduard oroli universiteti (Kanada) professori Devid Kormer tomonidan kiritildi. U MOOCni “ochiq, jamoaviy, tarqalgan, uzlusiz tarmoqdagi o‘qitish” sifatida ta’riflagan. MOOC abbreviaturasi 4 ta alohida terminlardan tashkil topgan.



1-rasm. MOOC abbreviaturasi to‘rtga alohida terminlari.

MOOC asosiy platformalarining xarakteristikalari. Ommaviy ochiq onlayn-kurslarini topish va undagi kurslarda o‘qish uchun foydalanuvchilarga so‘nggi uch yil mobaynida juda ko‘p yangi MOOC-platformalar - veb-saytlar paydo bo‘ldi. Bunday platformalarni adabiyotda startap (startup) atamasi bilan ham yuritiladi. Bu platformalar o‘z vazifalari, hamkor universitetlari, interfeys tili va boshqa ko‘rsatkichlari bilan bir-biridan farq qiladi. Onlayn-kurslari platformalarining to‘liq ro‘yxati ko‘p bo‘lganligi sababli, quyida ularning eng yirik va ko‘p tarqalgan platformalari to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi. Hozirgi kunda universitet darajasidagi onlayn-kurslar uchun uchta yirik platformalar mavjud: Coursera, Udacity va edX. Ularning barchasi AQShda joylashgan va 2012 yildan boshlab o‘z faoliyatini boshlagan.

edX va Coursera platformalari 2016 yildan boshlab biznes - modelga o‘tmoqda. Ya’ni talabalar ixtisoslik bo‘yicha bir necha kurslarga qo‘sishma xizmatlar olishlari bo‘yicha alohida mablag‘ to‘lash imkoniyatini yaratmoqda. Bu xizmat turida talabalarga instruktorlar bilan bog‘lanish, talabalar o‘rtasida hamkorlikni yanada intensivlashtirish kabi xizmatlar kiradi. Bunda xizmatlar oddiy holda ko‘rsatilmaydi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, onlayn-kurslarni sekin-asta mablag‘ bilan ta’minlash tendensiyasiga qarab ketmoqda.

2023 yilda onlayn ta’limning eng mashhur 5 ta yo‘nalishi:

- dasturlash;
- grafika dizayni;
- internet-marketing;
- boshqaruv;
- xorijiy tillar.

Coursera onlayn-kurslarining ta’lim modeli. Coursera onlayn-kurslarining ta’lim modeli, quyidagi elementlardan iborat: o‘quv video ma’ruzalar, topshiriqlar, interfaol forumlar va nazorat[3,4].

Coursera onlayn-kurslarining ta’lim modeli quyidagi sxema asosida tuzilgan:

O‘quv video ma’ruzalar. O‘quvchi Coursera platformasida kursning ma’ruzasini tinglaydi. Ma’ruza qo‘sishma ravishda infografika va turli uslubiy materiallar bilan to‘ldirilgan slaydlarni ko‘rsatish bilan olib boriladi.

Topshiriqlar. Har haftada yangi video ma’ruza bilan birgalikda unga mos ravishda topshiriqlar (quizzes) beriladi. O‘quvchi bu topshiriqlarni belgilangan muddatda (mustaqil ravishda, o‘ziga qulay bo‘lgan vaqtida) bajarishi kerak bo‘ladi. Topshiriqlar tarkibiga qo‘sishma darsliklarni o‘qish, internet-resurslari bilan ishlash, esse yozish, katta hajmda bo‘lmagan tadqiqot yoki testdan o‘tish kiradi.

Interfaol forumlar. O‘quvchiga maslahat berish va o‘tilgan o‘quv materiallarini muhokama qilish uchun interfaol forumlar ishlatiladi.

Nazorat. Har haftada test savollariga javob berish kerak bo‘ladi. Test savollari random-tasodifiy ko‘rinishda beriladi. Testlarni bir necha marta topshirish mumkin, ulardan olingan maksimal ball hisobga olinadi. Coursera onlayn-kurslarining muhim pedagogik g‘oyasi bajarilgan topshiriqlarni o‘zaro tekshirish hisoblanadi.

Coursera onlayn - kursi tugagandan so‘ng, ushbu kurs saytda arxiv ko‘rinishida saqlanadi, uning materiallaridan foydalanish mumkin. Lekin vazifalar baholanmaydi va sertifikat berilmaydi.

Coursera ommaviy onlayn ochiq kurslarda aniq fanlarni mustaqil o‘rganishda talabalarga quyidagi imkoniyatlarni yaratmoqda:

fanlar bo‘yicha taklif etilayotgan dasturlar va kurslarning turli xilligi. Bugungi kunda masofaviy ta’lim tizimlari tanlab olish uchun juda keng spektrdagи onlayn-kurslarini taklif etmoqda. Bugun talaba o‘ziga qiziqarli bo‘lgan barcha mavzularni topishi mumkin, masalan, qishloq xo‘jaligidan boshlab, to nanotexnologiyalargacha.

o‘qish uchun to‘lovlarning yo‘qligi. Onlayn-dasturlarda o‘qish qiymat jihatdan ozroq bo‘lganligi uchun ularda o‘qish imkoniyati yaratilgan. O‘quv ta’lim muassasalariga qatnashish xarajati yo‘qoladi, o‘quv materiallari onlayn rejimi bo‘lganligi sababli sarf-xarajatlar bo‘lmaydi.

o‘qish uchun shart-sharoitlarning yaxshiligi. O‘quv ma’ruzasi va boshqa materiallar talabaga elektron variantda yetkazib beriladi. Talaba esa vazifalarni bajaradi va javoblarni elektron variantda ortga yuboradi, bu esa o‘quv muassasasiga borishni istismo etadi. Bundan tashqari, vazifalarni talaba xohlagan vaqtida bajarish imkoniyatiga ega.

o‘qituvchilar bilan ko‘proq birgalikda ishlash. Talaba o‘qituvchi bilan birga sayt orqali ochiq muloqotga kirishishi mumkin: onlayn rejimida o‘quv jarayonidagi so‘rovnomalardan, taklifnomalarda, muhokamalarda ishtirok etishi, qiyin materiallar bo‘yicha bahslashishi mumkin. Bunday muloqotlar, ayniqsa, kamtar va kansuxan talabalar uchun qo‘l kelishi mumkin. Onlayn-kurslarini o‘qishda diqqatni to‘plash osonroq. Chunki boshqa talabalar bo‘lmaganligi sababli diqqatni to‘plash uchun sharoit bo‘ladi. Yana bitta ijobjiy tomonlardan biri - bu ta’lim jarayonidagi hamkorlik ruhiyatidir. Talabalar o‘z g‘oyalari va takliflari bilan muhokamalarda ishtirok yetishadi hamda o‘zaro fikr almashishadi. Bu esa bilim va malaka olishda katta ahamiyatga ega.

Qo‘sishma ta’lim olish. Coursera ommaviy onlayn ochiq kurslarda talabalar bir vaqtning o‘zida ham ishlash, ham o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa uning karyerasiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Malaka oshirish. Coursera ommaviy onlayn ochiq kurslari malaka oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ishdan bo‘shamagan holda mavjud kasblar bo‘yicha yoki qo‘sishma, chuqurlashtirilgan bilim olish bo‘yicha malaka oshirish mumkin.

Turli talablarning yo‘qligi. Ro‘yxatdan o‘tish uchun faqat Internet xizmati kerak bo‘ladi xolos. Bundan tashqari, yoshi, ma’lumoti va boshqa ko‘rsatkichlar bo‘yicha cheklash yo‘q.

Coursera ommaviy onlayn ochiq kurslari ham kamchiliklardan holi emas. Ularning asosiyalarini

ko'rib chiqamiz:

Rasmiy kurs sifatida tan olinmasligi. Dasturlar attestatsiya va akkreditatsiyadan o'tmaganligi sababli Coursera ommaviy onlayn ochiq kurslari va dasturlari universitet fanlari sifatida hisobga olinmaydi.

Individual yondashuvning yo'qligi va kurslarning ommaviyligi. Ta'lismuassasasiagi talabalar va o'qituvchilar nisbati har bir ta'limga oluvchiga sifatli ta'limga berish uchun proporsional bo'lishi kerak. Universitetda o'qituvchi o'zlashtirishi past bo'lgan talabalarni topish va ular bilan ishslash imkoniyatiga ega. Coursera ommaviy onlayn ochiq kurslarida bunday imkoniyat yaratilmagan, chunki kursga yozilgan talabalar soni yuqori darajada ko'p.

Kurslarni tugatmaslik. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, kursga yozilganlardan 90 foizi kursni tugatmasdan tashlab ketishmoqda. Buning sabablaridan biriga – ko'pchilikni qiziqib yozilganligini keltirish mumkin. Kurs oxirida esa o'qishga qiziqish yo'qolganligi sababli kursdan ketishmoqda.

Baholash tizimi sifati va berilayotgan materiallar sifati. Elektron o'quv jarayonida nazariy bilimlarni mustahkamlash yo'lida xizmat qiladigan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish imkoniyati mavjud emas. Kompyuter yordamida baholash tizimida ham kamchiliklar borligi kuzatilmoqda. Buning natijasida juda katta ilmiy va ijodiy mehnatni baholash muammosi paydo bo'lmoqda.

Ta'limga tizimining tayyor emasligi. Oliy ta'limga tizimida Coursera ommaviy onlayn ochiq kurslarini olib boruvchi professor-o'qituvchilar va mutaxassislarining kamligi hamda ko'pchilik professor-o'qituvchilar ommaviy o'qitish tizimiga o'tish bo'yicha kasbiy va ma'naviy tayyor emasligi kuzatilmoqda. Bundan tashqari, elektron o'qitish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujatlarni zamonaviy talab darajasiga keltirish zarur.

Talabalar mustaqil ishini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:

Auditoriyada amalga oshiriladigan talabalarning mustaqil ishlari. O'tilgan mavzuni qayta ishslash, kengaytirish va mustahkamlashga oid topshiriqlar bajariladi;

Auditoriyadan tashqari amalga oshiriladigan talabalarning mustaqil ishlari. O'quv dasturdagi ayrim mavzulari mustaqil holda o'zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko'rib kelish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot xarakteridagi ishlari va hokazo.

O'quv jarayonida Coursera ommaviy onlayn ochiq kurslardan foydalangan holda mustaqil ta'limga orqali talabalar o'rgangan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va nazorat qilishni amalga oshirish modeli taklif etilmoqda.

Ushbu modelga muvofiq, fan bo'yicha mustaqil ishlari ro'yxati kafedra professor-o'qituvchisi tomonidan shakllantiriladi. Ro'yxatni shakllantirishda, fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, Coursera ommaviy onlayn ochiq kurslarda (asinxron va sinxron) talaba tomonidan mustaqil o'rganish mumkin bo'lgan kurslar va ularda bajarilishi mumkin bo'lgan mustaqil ishlari ro'yxati tuziladi. Mustaqil ishlari ro'yxati quyidagi yo'nalishlarda bo'lishi mumkin:

Mavzularni mustaqil o'zlashtirish. Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn kafedrada himoya qilinadi. Talaba mustaqil o'zlashtirgan kurslarning materiallarini konspektlashtiriladi va bu o'qituvchi tomonidan tekshiriladi va baholanadi.


Referat tayyorlash. Talaba mustaqil o'zlashtirgan kurslarni yakunlaganidan so'ng mazkur kurs mavzusi bo'yicha referat tayyorlaydi va kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ko'rgazmali vositalar tayyorlash. Talaba ko'rgazmali materiallardan foydalanish bo'yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va kafedrada himoya qiladi.

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash. Test, savol va topshiriqlar majmuasi kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ilmiy maqola, tezislari va ma'ruzalar tayyorlash. Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma'ruza kafedrada himoya qilinadi.

Amaliy mazmundagi nostandard masalalarni yechish va ijodiy ishslash. Talabaning qiziqish va qobiliyatiga qarab, unga ilmiy xarakteridagi topshiriqlar berish, o'qituvchi bilan hamkorlikda ilmiy maqlolar tayyorlash va chop ettirish mumkin.



2-rasm. Coursera orqali Informatika, axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlik fanlaridan mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha tavsiya etilayotgan model.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimi samaradorligini oshirish maqsadida Soursera ommaviy onlayn ochiq kurslari va ularning imkoniyatlaridan aniq fanlarni o'qitishda foydalanishda quydagilar tavsiya va taklif etiladi.

Oliy ta'lim muassasasi (OTM)ning yo'nalishidan kelib chiqqan holda MOOC tomonidan taqdim etilayotgan kurslar Davlat ta'lim standarti, xorij tajribasidan kelib chiqqan holda yangi namunaviy o'quv rejasi asosida maxsus ishchi guruh tomonidan tanlab olinishi va rektor (o'quv ishlari bo'yicha prorektor) tomonidan tasdiqlangan ishchi o'quv rejasi va fan dasturlariga muvofiq tashkil etilishi lozim.

OTM da tuzilgan ishchi guruh talabalarning o'quv yilining o'quv fanlaridan kelib chiqqan holda MOOC tomonidan taklif etilayotgan kurslarni o'rganib chiqadi. O'rganib chiqish vaqtida qo'yidagi kriteriyalar asosida tavsiya etiladigan kurslar shakllantiriladi:

tegishli fanlar bo'yicha o'quv dasturlari mazmunini takomillashtirishni, ta'limni ishlab chiqarish bilan

integratsiyalashni ta'minlash maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlari bo'yicha mamlakatimizning ilg'or zamonaviy uskunalar va texnologiyalari bilan ishlash malakasini beruvchi o'quv kurslar bo'lishi;

ommaviy onlayn ochiq kurslardagi o'quv fanlari oliy ta'lif muassasasi ekspertizadan o'tgach, o'quv-uslubiy kengash tomonidan tasdiqlanadi va o'quv jarayoniga tatbiq etiladi.

#### Xulosa

ommaviy onlayn ochiq kurslaridan talabalarning mustaqil ta'lifini tashkillashtirishda foydalanishni tashkil etish maqsadga muvofiq.

OTM MOOC taqdim qilayotgan kurslardan foydalangan holda o'quv rejasining tanlov fanlar blogini o'qitishni tashkil qilishi mumkin.

OTM MOOC taqdim qilayotgan kurslardan talabalarga fakultativ mashg'ulotlar sifatida foydalanish mumkin.

MOOC orqali ta'lif olish imkoniyatini kengaytirish maqsadida MOOCda ta'lif olgan talabalarning bilimini akkreditatsiyadan o'tkazish mexanizmini yaratish va joriy etish mumkin. Buning uchun talabalarni MOOC dan foydalanib o'qishlari bo'yicha yo'riqnomalar va uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqish va maslahatlarni tashkil etish, targ'ibot ishlarini amalga oshirish lozim.

MOOC orqali ta'lif asosan ingliz tilidagi ekanligini inobatga olib mutaxassislik fanlarini chet tillarida o'qitishni normativ hujjatlar orqali talabga aylantirish tavsiya qilinadi.

Yuqorida taklif va tavsiyalarni amalga oshirilishi mamlakatimiz ta'lif tizimini ilg'or va eng reytingi baland oliy ta'lif tizimiga ega bo'lgan davlatlar qatoriga olib chiqishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

#### Adabiyotlar

[1] Xamidov V.S., Otaqo'ziyeva Z.M, Gulyamov S., Ravshanov M., Sattarov O., Absattarov N. Oliy ta'lif sifatini ta'minlashda internet xizmatlaridan foydalanishning muammo va yechimlari. Toshkent, «Aloqachi». 2016 y.

[2] Xamidov V.S. Erkin va ochiq kodli LMS tizimlar tahlili, «Infocom.uz» journali, 2013 yil, №7, 8. 14-bet.

[3] Nishonov A.X. va boshqalar. Ta'lilda erkin va ochiq kodli dasturiy ta'minotlar, Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya muammolari, respublika ilmiy-texnik konferensiyasi. Toshkent, 2012y. 121-123-6.

[4] Михеева О.П. Массовые открытые онлайн-курсы: классификация по типу организации учебного процесса, Вестник ТулГУ, выпуск 14, 2015.